

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUJALILOV MA'RUFJON ISLOM O'G'LI

**O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA RANG IFODALOVCHI TURG‘UN
O‘XSHATISHLAR TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
philological sciences**

Abdjalilov Ma’rufjon Islom o‘g‘li

О‘zbek va rus tillarida rang ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlar tadqiqi
.....3

Абдужалилов Маъруфжон Ислам оглы

Исследование устойчивых сравнений, выражающих цвет в узбекском и
русском
языках.....23

Abdjalilov Ma’rufjon Islam ogli

Study of stable comparisons expressing colour in Uzbek and Russian
languages.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUJALILOV MA’RUFJON ISLOM O‘G‘LI

**O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA RANG IFODALOVCHI TURG‘UN
O‘XSHATISHLAR TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4110 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xakimova Muhayyo Karimovna filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Qulmamatov Do‘stmamat Sattorovich filologiya fanlari doktori, professor Usmanov Farhad Faxriddinovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash asosidagi bir martalik ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida lisoniy hodisalarning mohiyatini ochishda inson omilini hisobga olish an‘anasi yetakchilik qilmoqda. Antroposentrik paradigma asosida tilning kognitiv mexanizmlari, lingvomadaniy xususiyatlari ham tadqiq etilmoqda. Badiiy tasvir vositasi deya imkoniyatlari chegaralangan o‘xshatishlar kognitiv jarayon sifatida talqin qilinmoqda hamda bu jarayon milliy-madaniy, etnik, sotsiolingvistik omillar orqali dalillanmoqda.

Dunyo olimlari o‘xshatishlarni kognitiv jarayon sifatida tadqiq etar ekan, uning turli tillarda farqli ekanligi har bir xalqning idrok intizomi bilan bog‘liq deb e‘tirof etmoqda. Olamning rangli manzarasi hamma uchun bir xil bo‘lishi ma‘lum. Lekin ushbu manzaraning lisoniy voqelanishi, undagi o‘xshatishlarning o‘rni, o‘xshatish etalonlari, obykti va subyekti o‘rtasidagi aloqadorliklar muayyan tillarda mushtarakligi bilan birga betakror hamdir. Shu nuqtayi nazardan olamning rangli manzarasini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektlarda tadqiq qilishning muhim ahamiyati shundaki, unda o‘rganilayotgan til egalarining olamni anglash yo‘sinlari, milliy-madaniyati, yashash tarzi aks etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yuritilayotgan odilona til siyosatining natijasida tilshunoslikka oid tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda “O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur”¹. O‘zbek tili rangli olam manzarasining milliy jihatlari boshqa til bilan qiyosiy-chog‘ishtirganda yanada yorqinroq namoyon bo‘lishi, o‘xshatish konstruksiyalarida muhrlangan milliy falsafa yanada aniqroq ochilishi mumkinligi tadqiqot mavzusining dolzarb ekanligini belgilaydi. O‘zbek tilshunosligida rang ifodalovchi o‘xshatishlarning monografik miqyosda tadqiq etilmaganligi, o‘zbek va rus tillari doirasida rang semantikali turg‘un o‘xshatishlar bo‘yicha ilmiy ishlarning amalga oshirilmaganligi bu ikki til misolida mazkur mavzuni monografik ko‘lamda o‘rganish zaruratini taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2019. – № 218. – Б. 2.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turg‘un o‘xshatishlar bo‘yicha jahon va o‘zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ma’lumki, o‘xshatishlar antik davrlardan boshlab poetik figura sifatida faylasuflarning diqqat e’tiborida bo‘lgan². Lingvistik muammo sifatida jahon tilshunosligida o‘xshatishlar XX asrning 60-yillaridan boshlab tadqiq qilina boshlandi. Bunga Z.A.Shugurov, L.I.Royzenzon, A.N.Tixonov, R.Qo‘ng‘urov, M.I.Cheremisinalarning ilmiy maqolalarini misol qilish mumkin³. Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillardan boshlab o‘xshatishlarga oid tadqiqotlar ko‘paydi va buning natijisida ularning bir qator izohli lug‘atlari yaratildi⁴. Bu davrda o‘zbek tilshunosligida M.Mukarramov, R.Qo‘ng‘urov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalarning monografik tadqiqotlari bajarildi, o‘xshatishlarning izohli lug‘ati yaratildi⁵.

Antroposentrik paradigma natijasida tilshunoslikda o‘xshatishlarning inson omili bilan birga lingvomadaniy, kognitiv jihatlarini o‘rganildi⁶. Jahon va o‘zbek tilshunosligida umumbashariy qadriyatlar va milliy madaniyatning

² Аристотель. Поэтика. – Л.: Acadimiya, 1927. – 124 с.

³ Ройзензон Л.И., Шугурова З.А. Основные вопросы изучения сравнительных устойчивых оборотов русского языка. Материалы конференции «Актуальные проблемы современного языкознания и лингвистическое наследие Е.Д. Поливанова». Т.1. – Самарканд, 1964. – С. 104-107; Тихонов А.Н., Кунгуров Р. Об устойчивых сравнительных оборотах в русском языке// Труды СамГУ. Вып. 139: Краткие сообщения. – Самарканд, 1964. – С. 41-42; Гутман Е.А., Черемисина М.И. Названия животных в составе сравнения (на материале русского и французского языков) // Вопросы языка и литературы. – Новосибирск, 1970. – Вып. 4. Ч.1. – С.253-266.

⁴ Лебедева Л.А., Казмин В.В. Постоянные сравнения русского языка. – Краснодар: Изд-во Кубан. гос. ун-та, 1975. – 51 с.; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – 312 с.; Огольцев В.М. Устойчивые сравнения русского языка. – М.: Русский язык, 1984. – 173 с.; Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии: автореф. дисс... д-ра. филол. наук.: – Краснодар: Изд-во Кубан. гос. ун-та, 1999. – 296 с.; Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка: Тематический словарь. – Краснодар: Университет, 1998. – 268 с.; Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимно-антонимический). – М.: Русские словари, 2001. – 800 с.; Мокиенко В.М. Словарь сравнений русского языка. – СПб.: Норинт, 2003. – 603 с.; Горбачев К.С. Словарь сравнений и сравнительных оборотов в русском языке. – М.: Астрель, 2004. – 285 с.; Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. – М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008. – С. 798.

⁵ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.; Қўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.; Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1984. – 259 с.; Худойберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: 1989. – 127 с.; Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

⁶ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19-24; Усманов Ф. Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 57 б.; Денисова Г.Л. Когнитивный механизм сравнения в немецком языке. – Самара, 2009. – 34 с.

o‘xshatishlar semantikasida aks etishi qiyosiy va chog‘ishtirma yo‘nalishlarda tadqiq qilindi va qilinmoqda⁷.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universitetining “O‘zbek va rus tillarining tipologik va chog‘ishtirma xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va rus tillarida rang ifodalovchi o‘xshatishlarning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning milliy-madaniy o‘ziga xos jihatlarini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

rang bilan bog‘liq o‘xshatishlarning nominativ, konnotativ, badiiy va milliy-mental vazifalarini aniqlash;

o‘rganilayotgan tillarda qizil, sariq, ko‘k, yashil, oq va qora ranglarni ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlarning semantikasini chog‘ishtirish orqali umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, shu orqali milliy-mental xususiyatlarini ochib berish;

rang ifodalovchi o‘xshatishlar asosidagi etalonlarni o‘rganish, madaniy kodlarni aniqlash, milliy konnotatsiyaning namoyon bo‘lishini tahlil qilish;

har ikki tildagi rang semantikali o‘xshatishlarda milliy madaniyatning o‘ziga xos aks etishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyektini o‘zbek va rus tillaridagi N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalarning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”⁸, L.A.Lebedovaning “Устойчивые сравнения русского языка”⁹, V.M.Ogolsevning “Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический)”¹⁰, V.M.Mokiyenkoning “Словарь сравнений русского языка”¹¹, V.M.Mokiyenko, T.A.Nikitinlarning “Большой словарь русских народных сравнений”¹² kabi lug‘atlarida qayd qilingan rang ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va rus tillaridagi rang ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlarning ma’noviy, milliy-madaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tilshunoslikning qiyosiy-chog‘ishtirma, tavsifiy, komponent tahlil, tizimli, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁷ Фенин Юй. Устойчивые сравнения, характеризующие лицо человека, в русской языковой картине мира (на фоне китайского языка): Дисс. канд. филол. наук. – СПб., 2016. – 255 с.; Малькова В.В. Устойчивые сравнения как средство выявления ассоциативного потенциала русских и немецких слов: Дисс. канд. филол. наук. – М., 2014. – 172 с.

⁸ Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 320.

⁹ Лебедова Л.А. Устойчивые сравнения русского языка: Тематический словарь. 3-е изд. – М.: Флинта, 2017. – 248 с.

¹⁰ Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический). – М., 2001. – 800 с.

¹¹ Мокиенко В.М. Словарь сравнений русского языка. – СПб., 2003. – 608 с.

¹² Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. – М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008. – С. 798.

o‘zbek hamda rus tillari olam lisoniy manzarasida rang nomlarining ikki tilda so‘zlashuvchilar dunyosining qadriyatli manzarasiga bog‘liqligi aniqlanib, ramziy, tarixiy, psixofiziologik va milliy-madaniy jihatdan muhim o‘ringa egaligi aniqlangan;

turg‘un o‘xshatishlarning nominativ, konnotativ, badiiy va milliy-mentallikni aks ettiruvchi kabi vazifalari o‘zbek va rus tillari misolida ochib berilib, olam ranglarining muayyan qismi faqat o‘xshatishlar orqali aniq nomlanishi, o‘xshatishlarning semantikasi leksema semantik strukturasi aniq aniqligi, konnotativligi, obrazlilik, milliy dunyoqarashni aks ettirishi hisobiga boy va murakkab ekanligi isbotlangan;

o‘zbek va rus tillarida qora, oq, qizil, sariq, ko‘k, yashil ranglarni ifodalovchi *zangidek, marvariddek, anordek, naqsh olmadek, za’farondek, shishadek; как кочегар, как лунь, как заря, как розь, как море, неспелый крыжовник* kabi turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy mohiyati, integral tomonlari millatlararo mushtarak tafakkur, olamni bilishdagi umumiyliklar bilan dalillangan;

rang ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlarning konseptual, kognitiv, madaniy semantik xususiyatlari o‘zbek va rus madaniyatini aks ettirishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari asosida o‘zbek va rus tili o‘xshatishlarining izohli lug‘atini yaratish, uning mobil ilova dasturini shakllantirishiga xizmat qilishi asoslangan;

olamning lisoniy manzarasini yoritishda o‘zbek va rus tillaridagi rang ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlarning qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili natijasida har ikkala til egalarining olamni anglashi, madaniyati va qadriyatlarining umumiy va o‘ziga xos jihatlari asoslangan;

lingvomadaniy va komponent tahlillar natijasida rus tilidagi rang ifodalovchi turg‘un o‘xshatishlarning o‘zbek tilida muqobillari aniqlangan;

tadqiqot materiallari ikki tilli tarjima lug‘atlari, tarjima dasturlari uchun o‘xshatishlar lug‘atining bazasini tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega ekanligi dalillangan;

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”ni takomillashtirishda, o‘xshatishlarning o‘quv lug‘atlarini yaratishda amaliy yordam berishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda tilshunoslikda e’tirof etilgan tadqiq metodlaridan va zamonaviy tilshunoslikning ko‘rsatmalaridan foydalanilganligi, ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari orqali asoslanganligi, nazariy qarashlarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundandaki, erishilgan natijalar, ishlab chiqilgan nazariy qarashlar o‘zbek va rus tillarida chog‘ishtirma tilshunoslikning semantika va lingvomadaniyatshunoslik sohalarini o‘xshatishlarga oid yangi ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek va rus tillarini chog‘ishtirib o‘rganishda, rang semantikasi va o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqida ilmiy-

nazariy manba vazifasini o'tashi, ilmiy natijalardan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida "Lingvomadaniyatshunoslik", "Kognitiv tilshunoslik" bo'yicha maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, ushbu fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va rus tillarida rang ifodalovchi turg'un o'xshatishlarni tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek hamda rus tillari olam lisoniy manzarasida rang nomlarining ushbu tillarda so'zlashuvchilar dunyosining qadriyatli manzarasiga bog'liq bo'lib, ramziy, tarixiy, psixofiziologik va milliy-madaniy jihatdan muhim o'ringa egaligi, turg'un o'xshatishlarning nominativ, konnotativ, badiiy va milliy-mentallikni aks ettiruvchi kabi vazifalari, olam ranglarining muayyan qismi faqat o'xshatishlar orqali aniq nomlanishi, o'xshatishlarning semantikasi leksema semantik strukturasidan aniqligi, konnotativligi, obrazlilik, milliy dunyoqarashni aks ettirishi hisobiga boy va murakkab ekanligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" ("Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке"); FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzularidagi fundamental va amaliy ilmiy loyihalarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 8-apreldagi 1/14-son ma'lumotnomasi). Natijada tilshunoslikda "so'z yasalishi va derivatsiya", "so'z yasalishi qolipi", "yasama so'z va yasalgan so'z" tushunchalarining lingvistik mohiyatini rang ifodalovchi turg'un o'xshatishlar matnida qo'llangan yasama til birliklari misolida tavsiflashning nazariy asoslariga oid materiallar bo'lib xizmat qilgan;

o'zbek va rus tillarida qora, oq, qizil, sariq, ko'k, yashil ranglarni ifodalovchi *zangidek, marvariddek, anordek, naqsh olmadek, za'farondek, shishadek; как кочегар, как лунь, как заря, как рожь, как море, неспелый крыжовник* kabi turg'un o'xshatishlarning lingvomadaniy mohiyati, integral tomonlari millatlararo mushtarak tafakkur, olamni bilishdagi umumiyliklar bilan dalillanishi, rang ifodalovchi turg'un o'xshatishlarning konseptual, kognitiv, madaniy semantik xususiyatlari o'zbek va rus madaniyatini aks ettirishiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 16-dekabrda 01/4-2721-son ma'lumotnomasi). Natijada platforma olamning rangli manzarasi o'zbek va rus tillarida farqli ekanligi hamda rang ifodalovchi turg'un o'xshatishlar rangning turli ko'rinish va jilvalarining nomlanishi, konnotatsiya ifodalashi, obrazli tasvir hosil qilishi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 3 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob hamda xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat. Ishning umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Olamning rangli manzarasi va uni o'xshatishlarda ifodalanishining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o'zbek va rus tillarida rang nominatsiyasi, olamning lisoniy manzarasining shakllanishida rang semantikasining o'rni aniqlangan. O'xshatishning lingvistik talqini va o'rganilishi yoritilgan.

1.1. paragraf *“O'zbek va rus tillarida olamning lisoniy rangli manzarasi”* deb nomlangan. Olamning lisoniy manzarasi juda keng tushuncha bo'lib, lisoniy rangli manzara uning bir elementidir. Borliq turli ranglardan iborat ekan, barcha tillarda u yoki bu darajada olamning rangli manzarasi mavjud bo'ladi. Mazkur manzarani rang nomlari, rang ma'nosini beruvchi sintaktik konstruksiyalar, metafora, o'xshatishlar, konseptlar, ramzlar, emotiv ma'nolar tashkil etadi.

Har ikki tilda ham rang nomlari ko'p bo'lib, tarixiy va zamonaviy; faol va nafaol; o'z, o'zlashgan va varvar qatlamlar chegarasining aniq emasligi hisobiga aniq miqdorini belgilash qiyin. Abu Rayhon Beruniy *“Kitob al-jamohir fil-ma'rifat al-javohir”* asarida turli minerallar va metallarning rangini, tusini tasvirlashda ikki yuzdan ortiq nomni ishlatadi¹³, N.Umarova Navoiy asarlarining lug'atida rang nomlarining 110 ta ekanligini ta'kidlaydi¹⁴. S.S.Bulatov o'zbek tilidagi rang nomlarining 164 tasini sanaydi¹⁵. N.D.Tashlanova esa O'zbek tilining izohli lug'atiga asoslanib o'zbek tilida 360 ta rang ifodalovchi sifat borligini qayd etadi¹⁶. Agar bu raqamlarga turmushda bor buyum, material, sabzavot va meva nomlaridan

¹³ Bu haqida qarang: Bulatov S.S. Rangshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B. 27.

¹⁴ Umarova N. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 92.

¹⁵ Bulatov S.S. Rangshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B. 28.

¹⁶ Ташланова Н.Д. Семантические и структурные особенности лексики цветообозначения в английском, узбекском и русском языках. – Фергана-США: «Global Book Publishing Services (GBPS) USA», 2022. – 125 с.

“rang” affiksoidi bilan yasalgan soʻzlarni hamda boshqa rang nominatsiyasini hosil qiluvchi vositalar qoʻshilsa, bu koʻrsatkich ancha koʻpayadi (*baxmalrang, jiydarang; ola-bula, simobi*). Soʻnggi paytlarda hunarmandchilik, mashinasozlik, kosmetologiya kabi sohalarning jadal rivojlanishi bilan rang nomlariga boʻlgan ehtiyoj oshib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarni toʻldirish uchun *pistoqi, pistamagʻiz, simobi, zargʻaldoq, qirmizi, qoʻngʻir, koʻktemir, surmarang* kabi koʻplab nomlarimizni zamonaviy oʻzbek tilining amaliy qoʻllanishida faollashtirish lozim.

Har bir tilda asosiy ranglar boʻlmish *oq, qora, qizil, koʻk, yashil, sariqni* ifodalovchi soʻzlar zamirida muayyan konseptlar shakllanadi. Zero, olamning asosiy ranglari til egalari ongida aksiologik, assotsiativ, ramziy, metaforik, metonimik, oʻxshatishga, stereotiplarga asoslangan tushunchalarni shakllantiradi.

“*Olam lisoniy manzarasining shakllanishida rang semantikasining oʻrni*” deb nomlangan 1.2. paragrafda oʻzbek va rus tilida **qora** va **oq** leksemalari misolida olam manzarasining nomlanishi, undagi mushtarak hamda farqli jihatlarining milliy tafakkur, madaniyat bilan bogʻliqligi yoritilgan.

Rang semantikasi hamma tillarda mavjud boʻlgani holda, uning muayyan bir rangni ifodalovchi bosh maʼnosi aynan boʻladi. Lekin maʼlum bir rang orqali hosil boʻlgan assotsiatsiyalar, umumlashtirishlar, oʻxshatishlar, ramziy maʼnolar, metaforik, metonimik va obrazli ifodalar turlicha boʻlishi mumkin. Til egalari rang ifodalovchi leksemalar orqali rangdan boshqa tushunchalarni nomlar ekan, bu nominatsiyalarda har bir xalqning oʻziga xos milliy fikrlashi, hayot tarzi namoyon boʻladi.

Oʻzbek va rus tilida ham *qora* leksemasi rangdan boshqa yana “ishlov berilmagan” (*qora suvoq, черная гайка*); “nursiz” (*qora oʻrmon, черная ночь*); “oʻqimagan, savodsiz, avom” (*qora xalq, черный народ*); “ogʻir, mashaqqatli” (*qora mehnat, черная работа*); “mashaqqatli azob-uqubatli, ogʻir” (*qora kunlar, черный год*); “salbiy belgiga egalik, noxush, koʻngilsiz, yomon” (*qora xabar, черная сторона*); “juda ham yomon, yovuz” (*qora niyat, черная зависть*); “shaxmatda oqqa zid donalar va shu donalar bilan oʻynovchi tomon” (*qora fil, черная пешка*), “norasmiy, noqonuniy” (*qora bozor, черный рынок*), “kelib chiqishi oddiy, oddiy nasab” (*qorasuyak, чёрная кость* (“человек незнатного, недворянского происхождения, крестьянин, ремесленник, кустарь и др. в дореволюционной России”)) kabi ikkala til uchun umumiy maʼnolarni ifodalaydi. Lekin har ikki tilda ham bir-biridan farqli maʼnolar mavjud. Masalan, oʻzbek tilida rus tilida mavjud boʻlmagan “tunda, tumanda yoki uzoqdan gʻira-shira koʻringan sharpa, koʻlanka” (*Ammo tikilgan qozon qaynamaydi, avtobus tez orada qorasini koʻrsatadiganga oʻxshamas edi* (O. Muxtor, Egilgan bosh)), moʻljalga olinadigan yoki olingan narsa, nishon, moʻljal (*Ular ertalab oʻtgan qoʻy suruvlarning izini qora olib... tepaliklar osha yurishadi* (A.Hasanov, Chiroqlar)), azador odam kiyadigan odmi kiyim (*u qora kiydi*) kabi maʼnolar mavjud.

Rus tilida “черный” (*qora*) leksemasi “yashirin” (*черная любовь, черный ход*), “xoʻjalikka oid” (*черный двор*) maʼnolarni ifodalab, yana jodugarlik bilan bogʻliq belgini ham (*черная магия*) nomlaydi. *Черный рынок, qora bozor* kabi kontekstlarda reallashadigan “noqonuniy” maʼno ham “yashirin” semantikadan kelib chiqqanligi mantiqan toʻgʻri.

O'zbek tilida *qora* leksemasining diaxron va sinxron ramziy ma'nolari mavjud bo'lib, u tarixda kuch-quvvat ramzi sanalgan: *qoraxoniy* – kuchli xoqon. Bugungi kunda qora semantikasi tarkibida “kuchli”, “katta”, “daxshatli” ma'nolar anglashilmasa ham mazkur qarash bilan shakllangan nominatsiyalar ko'p uchraydi: *qoramol*, *qorasovuq*, *Qoradaryo*.

Dissertatsiyada oq leksemasining ma'no taraqqiyoti ham tahlil qilingan.

1.3. paragraf “*O'xshatishlarning lingvistik talqini va o'rganilishi*” deb nomlangan. Ushbu paragrafda o'zbek va rus tilshunoslari tomonidan o'xshatishlarning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, o'xshatishlarda har bir xalqning o'ziga xos idrok intizomi aks etishi va bu orqali xalqning olamni anglashi haqida so'z boradi.

O'zbek tilshunosligida M.Mukarramov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda o'xshatishning morfologik xususiyatlari, uning yondosh hodisalarga munosabati, tasniflari ochib berilgan¹⁷. R.Qo'ng'urov esa o'xshatishlarning sintaktik tuzilishi, uslubiy xususiyatlari haqida to'xtalgan¹⁸. N.Mahmudov o'xshatishlar ishtirok etgan qiyosiy sodda gaplardagi semantik-sintaktik asimmetriya hodisasi kuzatilishini ochib beradi va o'xshatish hamda sof qiyosiy konstruksiyalarni farqlaydi¹⁹. D.Xudoyberganova o'xshatishlarning stilistik xususiyatlari tadqiqi aks etgan nomzodlik dissertatsiyasida o'xshatish asosi sifat va fe'l bilan ifodalangan o'xshatish qurilmalarini tahlil etgan²⁰. M.Yoqubbekova o'zbek xalq qo'shiqlaridagi o'xshatishlarni tutgan o'rniga e'tibor qaratgan²¹. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning antroposentrik tadqiqi bo'yicha dastlabki tadqiqot sifatida N.Mahmudovning “O'xshatishlar — obrazli milliy tafakkur mahsuli” maqolasini qayd etish lozim²². N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati” o'zbek tilshunosligi uchun juda muhim manba bo'ldi²³. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlarga oid bajarilgan monografik tadqiqot sifatida F.Usmonovning “O'zbek tili o'xshatishlarining lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasini e'tirof etish mumkin²⁴.

Rus tilshunosligida V.V.Vinogradov dastlab o'xshatishlarning tilshunoslik uchun ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularda milliy tafakkurning aks etishini e'tirof etgan edi²⁵. XX asrning 70-yillaridan boshlab rus tilshunosligida o'xshatishlar frazeologiya tarkibida komparativ iboralar sifatida o'rganila boshlandi. Bu davrdan

¹⁷ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 11.

¹⁸ Қўнғиروف Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.

¹⁹ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 259.

²⁰ Худойберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – С. 127.

²¹ Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. – Тошкент, 2003.

²² Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19-24.

²³ Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 320.

²⁴ Усманов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020.

²⁵ Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 15.

boshlab rus tilshunosligida o‘xshatishlar lug‘atini yaratish ishlari avj oldi. 1975-yilda L.A.Lebedova tahriri ostidagi “Rus tilining turg‘un o‘xshatishlari” lug‘ati²⁶, 1984-yilda V.M.Ogolsevning illyustrativ lug‘ati²⁷, 1998-yilda esa L.A.Lebedovaning tematik lug‘ati²⁸, 2001-yilda V.M.Ogolsevning sinonimik-antonimik lug‘ati²⁹, 2003-yilda K.S.Mokiyenko, 2004-yilda K.S.Gorbachev³⁰, 2008-yilda V.M.Mokiyenko va T.G.Nikitinalarning lug‘atlari³¹ nashr qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Xromatik ranglarni ifodalovchi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda rang semantikasi o‘xshatishlarning umumiy talqini; *qizil, sariq, yashil, ko‘k* ranglarni ifodalovchi o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan. Mazkur bob uch fasldan iborat bo‘lib, 2.1. paragrafi “*Rang ifodalovchi o‘xshatishlarning umumiy talqini*” deb nomlangan. Ushbu paragrafda rang semantikasiga oid o‘xshatishlarning nominativ, konnotativ, badiiy-estetik va milliy mentallikni aks ettirish vazifalari aniqlangan.

Ushbu bobning 2.2. paragrafi “*Qizil rang bilan bog‘liq o‘xshatishlar semantikasi va ularda madaniy kodlarning voqelanishi*” deb nomlangan. *Qizil* nomi o‘zbek va rus tillari lug‘aviy boyligining qadimiy va asosiy leksemalari qatorida turadi. Bu ikki tilda qizil rang bilan bog‘liq o‘xshatishlar ko‘p bo‘lib, ular boshqa o‘xshatishlardan etalonlarning rang-barangligi bilan farq qiladi. Chunki olamda qizil rangning ottenkalari turlichadir. Masalan, och pushtidan to to‘q qizil, gilos rangidan jigarrangga qadar ko‘rinishlar qizil rang doirasiga kiradi.

O‘zbek tilida qizil rangni ifodalovchi *anorday, mis barkashdek, gilosdek, yoqutdek, loladek, lavlagidek, xo‘rozning tojisidek, shafaqdek, sholg‘omdek, cho‘g‘dek, qonday* kabi o‘xshatishlar mavjud³².

Qizil rangni ifodalovchi o‘xshatishlarda aks etuvchi lingvomadaniy kodlar maishiy turmush realiyalari, fauna, flora, tabiat hodisalari, inson guruhlariga kiruvchi etalonlar orqali aniqlandi. Ma‘lumki, realiyalar aniq bir xalqning hayot tarzi, turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalaridir. Qizil rangni realiyalar orqali ifodalovchi *mis barkashdek* o‘xshatishi mavjud. O‘zbek tilida *barkash* milliy realiya nomi bo‘lib, “tillarang gardishsimon” va “katta” semantikasi; *mis barkashdek* esa “qip-qizil gardishsimon” ma’noli o‘xshatishlarga asos bo‘lgan. *Mis barkashdek* o‘xshatishi oy va quyoshning rangini va shaklini obrazli izohlashda qo‘llanib, oying to‘lgan va qizg‘ish rangini ifodalaydi: *Oy mis barkashdek qizarib ufqda turardi* (Mirmuhsin, Cho‘ri). Oy yoki quyoshni turmush realiyalaridan mis idishga o‘xshatish uchun, albatta, shu millat vakili bo‘lish va dunyoni shu millat ko‘zi bilan ko‘rish, qarichi bilan o‘lchash kerak.

²⁶ Лебедова Л.А. Постоянные сравнения русского языка. – Краснодар: Кубанский университет, 1975. – с. 48.

²⁷ Огольцев В.М. Устойчивые сравнения русского языка. – М.: Русский язык, 1984. – 173 с.

²⁸ Лебедова Л.А. Устойчивые сравнения русского языка: Тематический словарь. – Краснодар: 1998.

²⁹ Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический). – М., 2001.

³⁰ Горбачев К.С. Словарь сравнений и сравнительных оборотов в русском языке. – М.: Астрель, 2004. – 285 с.

³¹ Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. – М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008. – С. 798.

³² Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 320.

Rus tilida ham sarg'ish tusli qizil rang mis rangi bilan assotsiatsiyalanadi. Muayyan rangning bir xil etalonga o'xshatish orqali izohlanishini nominatsiya usuli sifatida talqin qilish mumkin. Lekin har bir xalq o'zining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib o'xshatishlarni shakllantiradi. O'zbek madaniyatida misdan tayyorlangan barkash etalon bo'lsa, rus tilida misdan tayyorlangan milliy ro'zg'or buyumi samovar o'xshatish etaloni sifatida qo'llanadi: *В угольной из этих лавочек, или, лучше, в окне, помещался сбитеничик с самоваром из красной меди и лицом так же красным, как самовар...* (Н.В. Гоголь, Мертвые души).

Qizil rangni ifodalovchi o'xshatishlarda fitomorf kodlar, yani, etalon sifatida fitonimlarning kelishi har ikki tilda ham ko'p uchraydi. Masalan, *olmadek* o'xshatishi o'zbek va rus tillarida ham kuzatiladi. O'zbek tilida *olmadek*, *naqsh olmadek* o'xshatishi ayollarning yuzlari, yonoqlari va lablariga nisbatan ishlatiladi. Uning *olmadek qizil*, *naqsh olmadek qizil*, *olmadek qip-qizil*, *naqsh olmadek qip-qizil*, *naqsh olmadek qizg'ish*, *olmadek qizarmoq*, *naqsh olmadek qizarmoq*, *naqsh olmadek go'zal* kabi shakllari mavjud. Ushbu o'xshatishlarda "chiroyli" konnotativ ma'no yuzaga chiqadi. Rus xalqida "olma" obrazi o'xshatish etaloni bo'lib kelar ekan, u qizil rang bilan birga sog'lomlik belgisini ham bildiradi. *Красный как яблочко* o'xshatishi qizil tusli sog'lom odamning yuzini, yonog'ini ifodalaydi³³. Rus tilida bu o'xshatish *красный как яблочко* yoki *румяный как яблочко* shakllarda ishlatiladi. Mazkur o'xshatishlardagi "яблочко", "румяный" so'zlari ijobiy konnotatsiyani vujudga keltiradi.

Qizil rangni ifodalovchi o'xshatishlarda zoomorf kodlar ham mavjud. Tabiatda qizil rangli jonzotlar kamligi hisobiga hayvonlarning qaysidir a'zolari rangi o'xshatishga asos bo'lgan: *хо'rozning toji(si)day*; *красные, как глаза у кролика* kabi.

Rus xalqi qaynatilgan qisqichbaqa rangi bilan ham qizillikni ifodalaydi. Qisqichbaqa pishirilganda juda ko'p issiqlik sarf bo'ladi va u pishish jarayonida tiniq qizil rangga kiradi. Shuning uchun rus tilida *как у варёного рака* strukturasi qo'llanadi. Ushbu o'xshatish ikki xil ma'no anglatadi. Birinchi ma'nosi bilan uyalganda, asabiylashganda yoki jismoniy zo'riqqandagi yuzdagi qizillik ifodalansa, ikkinchi ma'nosi esa yuqori harorat, issiq ta'siridagi qizillikni tasvirlaydi. Aynan mana shu harorat natijasidagi inson yuzining qizarishi qisqichbaqaning yuqori harorat orqali pishirishdagi qizarishi bilan xalq tomonidan oqilona bog'langan.

O'zbek va rus tillarida yana tabiat hodisalari (*shafaqdek qizil* va *красный как заря*), somatizmlar (*qondek qizil* va *красный как кровь*), predmetlar (*cho'g'dek qizarmoq* va *красный как огонь*) etalon bo'lib kelgan o'xshatishlar mavjud bo'lib, ulardagi aynanlik dunyoni bilishdagi umumiy jihatlardan darak beradi.

O'xshatishlarda, xususan, rang semantikali o'xshatishlarda milliy konnotatsiya kuchli aks etadi. Ma'lumki, rus lingvomadaniy qarashlarida yuzning

³³ Фенин Юй. Устойчивые сравнения, характеризующие лицо человека, в русской языковой картине мира (на фоне китайского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2016. – С. 110.

qizilligiga ko‘proq salbiy munosabat bildiriladi. “Yuz sovuqdan, shamoldan, izg‘irindan, issiqlikdan qizil bo‘lishi mumkin. Nosog‘lom odamning yuzi va ko‘zlari isitma, charchoq, uyqusizlik, burun oqishi va boshqalardan ham qizarishi ma’lum. Yuzning uyat yoki sharmandalikdan, noqulaylikdan qizarib ketishiga hissiy omil aralashadi, shuningdek, g‘azabdan, chorasizlikdan ham bu holat kuzatiladi³⁴. Bu kabi holatlarda yuzga nisbatan *как бурак, как варенный рак, как мак, как маков цвет, как медный самовар, как помидор, как морковь, как пион, как кумач, как у пьяного* o‘xshatishlari qo‘llanadi. Rus tilida alkogolli ichimliklar ichish oqibatida kelib chiqadigan kayf holatidagi qizillikni ifodalovchi o‘xshatishlar ham mavjud: *как бурак, как клюква*.

O‘zbek madaniyatida yuzning uyatdan, hayodan, ibodan qizarishi ijobiy holat sanaladi va ayniqsa, ayollarning bu kabi holati milliy-madaniy konseptual qarashlar bilan bog‘liqdir.

Ushbu bobning 2.3. paragrafi “*Sariq, yashil, ko‘k ranglarni ifodalovchi o‘xshatishlarning milliy-madaniy xususiyatlari*” deb nomlangan. Har ikki tildagi sariq rangni ifodalovchi o‘xshatish etalonlari quyidagi madaniy kodlarda o‘z ifodasini topgan: fitomorf kodlar: *za‘farondek, somondek, hazondek, xamakdek; жёлтый как (точно, словно, будто) лимон, как апельсин, как мёд, как шафран, как горчица, как солома, как рожь, желтый как померанец;* zoomorf kodlar: *как канарейка;* predmetli kodlar: *tilladek, oltindek, xamakdek, hazondek, barkashdek;* *как воск, как янтарь, как песок;* somatik kodlar: *o‘likdek sarg‘aytoq, жёлтый как у мертвеца (мертвого), жёлтый как покойник (покойница), жёлтое как у покойника (покойницы), как у покойника*.

O‘zbek tilida fitomorf kodlardan eng faol qo‘llanadigani za‘farondir. O‘zbek tilida bu o‘xshatish asosan inson yuziga nisbatan ishlatiladi. Ma’lumki, o‘zbeklar yuzining sariq rangli bo‘lishi me’yor bo‘lmay, yuzning sarg‘ayishi kasallik tufayli yuzaga keladi. Lekin o‘zbek mumtoz adabiyotida ishqdan, sog‘inchdan ham yuzning sarg‘ayishi metafora, o‘xshatish va yana turli badiiy san’atlar orqali ochib beriladi:

Shakar edi, zahar bo‘ldi so‘zlarim,

Za‘farondek sarg‘ayibdir yuzlarim. (Maxtumquli, Ota marsiyasi).

Rus tilida ham *za‘farondek* o‘xshatishi mavjud va u *как шафран* tarzida to‘q sariq rangni ifodalaydi. Ushbu o‘xshatish mallarangga yaqin to‘q sariq rangni ifodalaydi³⁵.

O‘zbek tilida ko‘k rangni ifodalovchi o‘xshatishlar ko‘p emas: *shishaday, osmondek. Osmondek* o‘xshatishi o‘zbek tilida ikkita ma’noga ega. U “keng, bepoyon” ma’nosini (odamlarning bag‘ri osmondek bepoyon edi) va “ko‘m-ko‘k, moviy” rangni (osmonday ko‘m-ko‘k ko‘l) ifodalaydi.

Turli xalqlarga mansub kishilarning jismoniy tuzilishi, milliy-etnik xususiyatlariga mos ravishda ko‘z rangining go‘zallik timsoli, namunaviy tip

³⁴ Фенин Юй. Устойчивые сравнения, характеризующие лицо человека, в русской языковой картине мира (на фоне китайского языка): Автореф. дисс. ... канд. наук. – СПб., 2016 – С.13.

³⁵ Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. – М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008. – С.756.

bo'lishi bir-biridan farqlidir. Ruslarda ko'k, inglizlarda yashil³⁶, o'zbeklarda esa qora ko'z milliy qiyofa to'kisligi, go'zalligining asosiy unsurlaridan hisoblanishi ma'lum³⁷. Shundan kelib chiqib, rus tilida ko'zning ko'kligi *как море, как небо, как васильки, как бирюза, как лён, как у дитя, как незабудки* kabi o'xshatishlar orqali ifodalanadi. Bu o'xshatishlar havorang va ko'k rang uchun birday qo'llanib, ularning farqlanishi kontekst orqali amalga oshadi: *Глаза как небо голубые; Улыбка, локоны льняные, Движенья, голос, легкий стан...* (А.С.Пушкин, Евгений Онегин).

O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'atida yashil rangni ifodalovchi faqat *zumraddek* o'xshatishi keltirilgan³⁸. Mazkur qimmatbaho tosh bilan qiyoslanuvchi o'xshatish orqali dalalar, qirlar, adirlar; ko'zlar ifodalanadi. Rus tilida ham *зелёный как изумруд* o'xshatishi mavjud va yorqin yashil ranglarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Rus tilida yashil rangni ifodalovchi turg'un o'xshatishlarning etalonlarini quyidagicha tasniflash mumkin: qimmatbaho tosh nomlari: *изумруд, малахит*; o'simlik nomlari: *трава, травка, хвоя, неспелый крыжовник*; hayvon nomlari: *лягушка, попугай, у кошки* va yegulik nomlaridan *оливковое масло*³⁹.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Axromatik ranglarni ifodalovchi o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, bob ikki paragrafdan tashkil topgan. 3.1. paragraf "*Oq rangni ifodalovchi o'xshatishlar semantikasi va unda milliy konnotatsiyaning o'rni*" deb nomlanadi. O'zbek tilida oq rang bilan bog'liq turg'un o'xshatishlarga *bulutday, bo'zday, devorday, dokaday, kumushday, marvaridday, momiqday, murdaday, nuqraday, paxtaday, sadafday, sutdek, qorday* kabilarni misol qilish mumkin. Mazkur o'xshatishlar inson tasvirida (tashqi tasvir va ichki olam), mavhum tushunchalar, predmetlar, tabiat hodisalarini obrazli ifodalashda qo'llanadi.

O'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlaridan biri – milliy baholash tendensiyasi kuchli bo'ladi. Inson o'zini, o'zining tanasini, ruhiyatini muayyan rang bilan bog'lar ekan, mazkur holatni baholash maqsadi, ehtiyoji bo'lsa, bunda o'xshatishlardan foydalanadi. Masalan, yuzning nojo'ya ta'sirlar oqibatidagi oqarishini *devorday, dokaday, bo'zday, murdaday* o'xshatishlari bilan berish mumkin. *Yuzi dokaday oqarib ketdi* jumlasida *yuzi juda ham oqarib ketdi* jumlasidan semantik, pragmatik, milliy-mental, lingvopoetik xususiyatlari bilan boyroqdir. Bunda ma'no o'xshatish etaloni bo'yicha aniq tasvirlanadi, ya'ni oq rangning darajasi dokaga qiyos qilinib, aniq rang tasavvur qilinadi. "Doka" etaloni orqali ifodalangan yuz xususida o'zbek millatida salbiy baho munosabati anglashiladi, mazkur obraz orqali jumla badiiylik kasb etadi.

³⁶ Маслова В. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 134.

³⁷ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули сифатида /Махмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.15.

³⁸ Махмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 90.

³⁹ Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. – М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008.

Sutdek, sutga chayilgandek o‘xshatishlari terining, xususan, yuzning oqligini ifodalovchi ijobiy semantikaga ega. Ma’lumki, sut o‘zbek xalqining predmetli kodlaridan biridir. Sut o‘zbek tili egalarida doimo oq rang bilan assotsiatsiyalangan: *og‘zimiz oqqa yetdi, oqlik, oq sut haqi*. Shu sabab yuz rangining me’yordan ochligi sutning rangiga o‘xshatiladi va bunday o‘xshatishlar gender xususiyatga ega bo‘lib, ayollarga nisbatan qo‘llanadi.

Sutdek oppoq o‘xshatishi yuz va badanning rangidan boshqa narsalar uchun qo‘llanganda, “chiroyli” ma’nosi neytrallashadi. Masalan, tunga nisbatan qo‘llanganda ijobiy konnotatsiyaga “yoqimli” semasi orqali erishiladi: *sutdek oppoq kecha. Sutdek oppoq* “begunoh, aybsiz, pokiza, pok” kabi mavhum ma’nolarni ham beradi: *sutdek oppoq orzular, sutdek oppoq qalb, sutdek oppoq niyatlar, sutdek oppoq charog‘on yo‘l*. Bu semantika oq rangning o‘zbek xalqida poklik, begunohlik kabi ramziy ma’nolari, unga bo‘lgan aksiologik qarashlarning voqelanishi natijasidir. Quyidagi misolda ushbu o‘xshatishning “begunoh” ma’nosi reallashgan: *Yaxshi odam deganda, albatta, sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar*. (Sh.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri).

Paxtaday o‘xshatishi oq, oppoq ma’nolarini beradi. Paxta o‘zbek xalqining asosiy dehqonchilik mahsuloti sanalishi ma’lum. Uning o‘zbek xalqi madaniyatidagi o‘rniga alohida to‘xtalish shart emas, u nafaqat, fitomorf kod, balki alohida konsept yoki geshtalt sifatida ham maqomga ega. *Paxtaday oq, paxtaday oppoq* o‘xshatishi odamning sochiga, soqoliga, yuziga, qo‘llariga, qushlarga, kiyimlarga, umuman, oq rangli barcha narsalarga ishlatiladi:

*Oq paxtaday sochingiz, Omon bo‘lsin boshingiz,
Ayta qoling buvijon, Hozir qancha yoshingiz (Qo‘shiqdan).*

O‘zbek tilida oq rangni ifodalovchi o‘xshatishlarning baho anglatish darajasi turlicha bo‘lib, yuqorida keltirilgan o‘xshatishlarda ijobiy semantika turli darajadadir:

1-jadval. Oq rang bilan bog‘liq ijobiy konnotativ ma’noning darajalanishi

Bosqichlar	O‘xshatishlar	Konnotatsiya asosi
7-bosqich	sadafdek, durdek, marvariddek	“Qimmatbaho” semasi bilan ijobiy semantikaga ega
6-bosqich	sutdek	Madaniy kod ekanligi bilan ijobiy semantikaga ega, “chiroyli” semasi mavjud.
